XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Xatirchi tumani, Mustaqillik ko’chasi 34 uy, +998 93 951 5069, xatirchi@nv.uz

2025-yil 29-dekabr VII-15-124-5-77-K/25 Xatirchi tumani

Xatirchi tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25-dekabrdagi 1105-Qonuniga va xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining qaroriga muvofiq hamda Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-12/20-01-38/3533-sonli xatini inobatga olib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25-dekabrdagi 1105-Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Xatirchi tuman budjetining 2026 yilgi daromadlari **170 393,7 mln.so‘m** va xarajatlari esa **170 393,7 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Xatirchi tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1640,2 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **2 198,0 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Baxriddinov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Ernazarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Keldiyorov) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (D.Eshnazarov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari U.Baxriddinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ADIZOV
UMIDJON
HASANOVICH

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-124-5-77-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**170 393 695,0**
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	3 095 300,0
2	Foyda solig‘i	5 600 865,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	7 457 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	33 190 740,0
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 076 000,0
6	*benzin, dizelь yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i*	*16 897 000,0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 565 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	11 100 000,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	14 061 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	23 300 000,0
11	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	34 907 700,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 248 200,0
13	Davlat boji	5 524 750,0
14	Yig‘imlar	1 855 840,0
15	Jarimalar	4 040 300,0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	474 000,0

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-15-124-5-77-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**170 393 695,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**170 393 695,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Umumiy ta’lim**	**23 931 218,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 245 618,0
	mening maktabim jamg‘armasi	5 685 600,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim**	**11 028 653,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 028 653,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Madaniyat bo‘limi**	**10 247 314,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 112 976,0
	Musiqa va san’at maktablari	5 134 338,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Sport bo‘limi**	**11 531 025,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 531 025,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Suv yetkazib berish xizmati**	**3 629 000,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	3 629 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**28 015 600,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 615 600,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	4 400 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**643 456,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	643 456,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**611 887,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	611 887,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**2 166 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 166 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**21 657 324,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	21 657 324,0
	Tuman xokimligi xarajatlariga	7 073 807,0
	Xalq qabulxonasi xarajatlariga	176 138,0
	Xokim yordamchilari xarajatlariga	8 928 659,0
	Xotin qizlar xarajatlariga	3 832 225,0
	Xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga	139 554,0
	Investitsiyalar, sanoat va savdo xarajatlari	227 428,0
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi xarajatlari	499 821,0
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi xarajatlari	779 692,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**3 178 522,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 178 522,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**8 684 445,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 684 445,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 191 722,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 191 722,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**5 433 158,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 433 158,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Zahira jamg‘armasi**	**2 197 961,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 197 961,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**35 246 410,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	35 246 410,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	